

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IJTIMOY SOHA TIZIMIDA YOSHLAR
SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy ish yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Turabova Laziza Sobir qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy soha tizimida yoshlar siyosatini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Amaldagi yondashuvlarning kamchiliklari ko‘rsatilib, ularni bartaraf etish yo‘llari taklif etiladi. Xususan, yoshlar huquqlarini himoya qilish, bandligini ta‘minlash va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar ,davlat dasturlari, qonunchilik me‘yorlari va yoshlar siyosatining prinsplari hamda vazifalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar siyosati, innovatsiya, davlat dasturlari, sun’iy intellekt.*

Abstract: *This article will analyze the issues of improving youth policy in the social sphere system in Uzbekistan. The disadvantages of the current approaches are shown, and ways to eliminate them are proposed. In particular, reforms aimed at protecting youth rights ,ensuring employment and increasing social activity, state programs, legislative norms and Princelps and tasks of youth policy will be covered.*

Keywords: *Youth Policy, Innovation, government programs, artificial intelligence.*

Аннотация:*В данной статье анализируются вопросы совершенствования молодежной политики в системе социальной сферы Узбекистана. Указываются недостатки существующих подходов и предлагаются пути их преодоления. В частности, будут освещены реформы, государственные программы, законодательные нормы и принципы и задачи молодежной политики, направленные на защиту прав молодежи, обеспечение занятости и повышение социальной активности.*

Ключевые слова: *молодежная политика, инновации, государственные программы, искусственный интеллект.*

KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy siyosat tizimida aynan yoshlarga oid davlat siyosati yurtimiz rivoji uchun dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Yoshlarga oid davlat siyosati -bu davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Mart, 2026-yil

chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi¹. Yoshlar masalasi nafaqat bizda, balki butun dunyoda muhim o‘rin egallagan. Shunday ekan, katta tajribaga ega rivojlangan xorijiy mamlakatlardan yoshlar istiqboli uchun rivojlanayotgan O‘zbekistonga yangi islohotlarni, xususan bandlik va ta‘lim tizimlaridagi samarali yondashuvlarni olib kirishimiz kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev yoshlarga alohida etibor qaratib, ushbu masalani davlat siyosati darajasiga ko‘tarmoqda. Yoshlarni turli xil yo‘nalishlarda, jumladan, ta‘lim, sport, ma‘daniyat va san‘at, IT kabi sohalarda qo‘llab-quvvatlash, ularga yangi imkoniyatlar yaratish orqali keng ko‘lamdagi salmoqli ishlar rejalashtirilgan va bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilmoqda. Ammo, shu bilan birga, yoshlarda zamonaviy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ularning bandligini ta‘minlash, voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, yosh avlodda mustahkam vatanparvarlik g‘oyasi hamda qat‘iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish borasida qator muammolar saqlanib qolmoqda.² Ayni paytda yoshlarga oid davlat siyosati to‘liq ushbu maqsadlarga yo‘naltirilgan. Yosh avlodga huquqiy kafolatlarni yaratishdan tortib, sifatli bilim olishi, kasb-hunar egallashi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi, shaxs sifatida kamol topishi, qo‘yingki, mehnat qilib, farovon kelajagini bunyod etishi uchun barcha imkoniyatlar safarbar etilmoqda. Xususan, 2023-yilda yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash, manfaatlarini ta‘minlash sohasida yurtimiz tarixida kuzatilmagan ulkan ishlar qilingan edi. Albatta, bu jadal demokratik taraqqiyot yo‘lini tanlagan vatanimiz uchun mutlaqo tabiiy holdir. Chunki ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan, global dunyoda raqobat ortib borayotgan bir sharoitda mamlakatlarning kelajak taqdiri yoshlarning intellektual salohiyati, iste‘dodiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Endilikda yoshlarning raqobatchisi yoshlar emas, balki, sun‘iy intellekt bo‘lib qoldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirgi davrda hayotimizdagi barcha sohalarda internet va turli ijtimoiy tarmoqlar muhim rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga deyarli barcha masalalarni inson mehnati o‘rniga sun‘iy intellekt tomonidan bajarib kelinmoqda. Tanganing ikkinchi tomoni bo‘lganidek har bir foydali narsaning ozmi ko‘pmi zararli tomoni ham mavjud, buni yoshlarning ba‘zi sohalarda o‘rgangan ko‘nikmalari aynan sun‘iy intellektlar tufayli keraksiz bo‘lib qolganida ham ko‘rishimiz mumkin, ushbu jarayon ishsizlikka sabab bo‘lib qolgan holatlar ham kuzatiladi. Shunday ekan, biz yosh avlodga o‘z kelajagimiz va kelgusi avlod uchun yaratilib kelinayotgan barcha say-harakatlarni rivoj topishi va asrab-avaylanishi uchun bel bog‘lash talab etilmoqda.

Yoshlarni mehnat va o‘z sohalari bo‘yicha ish bilan ta‘minlash ijtimoiy masala sifatida olib chiqilishi global mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, hozirgi kunda internet manbaalar, sun‘iy intellekt barcha sohalarda

¹ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406-son Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI TUBDAN ISLOH QILISH VA YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI” TO‘G‘RISIDAGI Farmoni

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Mart, 2026-yil

keng qo‘llanilib kelinmoqda, ammo har bir soha rivoji tubida aynan inson mehnati yotganini unutmazlik lozim. Shu fikrimizni yanada to‘ldirish maqsadida Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning yoshlarga qarata so‘zlagan nutqlarini eslatib o‘tsak: “Aziz farzandlarim! Yana bir muhim masala – bugungi yoshlar o‘ziga kerakli ma‘lumotlarni avvalo Internetdan olmoqda. Shunday ekan, Internetning milliy segmentida yoshlarni o‘ziga jalb qiladigan, tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimiz haqida ishonarli va qiziqarli ma‘lumot beradigan kontentlar yetarli? Afsuski, bu savolga ijobiy javob berolmaymiz. Hali bu borada oldimizda juda katta vazifalar turganini barchangiz yaxshi his qilasiz, albata.³”. So‘nggi yillarda jahon hamjamiyatida fuqarolarning shuningdek jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan yoshlarning huquq va erkinliklarini ta‘minlanishi va ular himoyasiga oid qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bunga yurtboshimizning tashabbuslari bilan BMT va dunyoning 100ga yaqin davlatlari ishtirokida “Xalqaro yoshlar konvensiyasi” ning qabul qilinganini misol qilish mumkin. Davlat dasturiga Ijtimoiy sohani rivojlantirish alohida tarmoq sifatida kiritilib, aynan. “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”⁴ uning ustivor yo‘nalishlarida biri sifatida belgilab qo‘yilgan.

Bilamiz, bu sohalarda bir qator qonun va chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, ammo ularni amalda qo‘llash borasida hali yetarli darajada harakat qilmayapmiz. Shu sababli yoshlarimizda haligacha ishsizlik muammosi dolzabligicha qolmoqda. Yoshlardagi ishsizlik- jamiyatda bekorchilikdan kelib chiqadigan jinoyatchiliklarning ko‘payishi, yoshlarda bora-bora , “boqmandalik” kayfiyatini shakllantirishi mumkin. Hozirgi kunda,albatta,davlat tashkilotlarida ham, NNT (Nodavlat Notijorat Tashkilot)larda ham yoshlar uchun bo’sh ish o’rinlari mavjud. Bunga misol qilib, Aflotun International Xalqaro NNT (Nodavlat Notijorat Tashkilot) 16-24 yoshgacha yoshlarning bandligiga qaratilgan dasturi, Yoshlar ishlari agentligi (Prezidentning PF-6017 sonli farmoni bilan tashkil etilgan davlat tashkiloti) yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish uchun bir qator maqsad va vazifalarni o‘z oldiga qo‘ygan.

Yoshlarga oid davlat siyosati ochiqlik va shaffoflik, yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi,yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma‘naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi,yoshlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmasligi⁵ kabi asosiy prinsiplarga amal qiladi. Mana necha yillardan beri qilinayotgan islohatlar amalga oshirilib kelinayotganiga qaramasdan ayrim muassasalarda ishga qabul qilinish jarayonida talablar yuqoriligi, muayyan ish tajribasi talab qilinishi,oylik maoshlar esa talab darajasida emasligi, ishsizlik va mehnat migratsiyalarining

³ O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoni.

⁵ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406-son Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Mart, 2026-yil

ko‘payib ketishi holatlari kabi muammolarga olib kelmoqda. Bu holatlar o‘zidan-o‘zi yoshlar qiziqishi va ish tashlash kabi sabablarga olib kelinishi mumkin.

TADQIQOTLAR NATIJALARI

Ushbu tadqiqotimiz ya‘ni olib borilgan izlanishlarimiz natijasida ijtimoiy soha tizimida yoshlar siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari hamda ularni qo‘llab-quvvatlashdagi olib borilayotgan islohotlarni ko‘rib chiqdik va quyidagi xulosalarga ega bo‘ldik:

Aynan ijtimoiy sohalarida yoshlarni ish bilan ta‘minlashdagi bir qator masalalarda har doim ham sun‘iy intellekt yetarli natijani bermaydi. Ijtimoiy ish-bu jamiyat bilan muloqot degani. Shunday ekan, bu sohada nafaqat bilim,ko‘nikma va malaka talab etiladi, balki pegagogik-psixologik omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar o‘z sohalarida sun‘iy intellekt omilidan to‘g‘ri va samarali foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirib borishi lozim toki yaratilayotgan yangiliklar jamiyat rivoji uchun manfaatli bo‘lsin.

XULOSA

Yoshlar bandligini ta‘minlashda ish tajriba, mutaxassislik diplomi va yana boshqa kasbiy talablargagina tayanmay,shaxsiy ya‘ni shaxsning layoqatliligi, qobiliyati, ishga bo‘lgan ma‘suliyati va kommunikativ kompetensiyalarini ham inobatga olish zarur.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda davlat tashkilotlari va NNT(Nodavlat Notijorat Tashkilot)lar ishsiz yoshlarning bandligini ta‘minlash bo‘yicha tizimli hamkorlikni yo‘lga qoysa,bu ularning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshiradi hamda yoshlarning chet el davlatlariga ketishi va ishsizlik darajasini kamaytiradi. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030- yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” (2024.08.30 PQ-308 son) qarori va “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi” qonuni (12.08.2016) yoshlarga qaratilayotgan e‘tiborning huquqiy asosi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Lekin faqat qonun bilan cheklanibgina qolmay amaliyot dasturlarini kengaytirish, kasbiy ta‘lim dasturlari,ishga joylashtirish xizmatlarini rivojlantirish, startaplarni qo‘llab quvvatlash ishsiz yoshlarning bandligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi.

Amaldagi yondashuvlarda huquqiy bazaning yetarli emasligi – Yoshlar siyosatini amalga oshirishda ayrim qonun va normativ hujjatlar zamon talablariga mos emasligi,uyushmagan yoshlar bilan ishlashdagi muammolar,ularning jamiyatga jalb etilish mexanizmlari yetarlicha samarali emasligi,yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishdagi kamchiliklar – tarbiyaviy va profilaktik choralar yetarli emasligi kabi muammolar mavjud va biz ularni vaqtida hal qilishimiz zarur.

Kreativ yondashuvlar sifatida quyidagilarni taklif qilishimiz mumkin:

1.Huquqiy bazani takomillashtirish – Yoshlar manfaatlariga mos keluvchi yangi qonun va dasturlar ishlab chiqish.

2.Uyushmagan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash–Tadbirkorlik,kasb-hunar o‘rgatish dasturlarini kengaytirish.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Mart, 2026-yil

3. Huquqbuzarliklarning oldini olish– Huquqiy savodxonlik va ma’naviy tarbiyani kuchaytirish.

Ko‘rinib turibdiki, bu kabi qarorlar yoshlarimizga yanada keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Umid qilamizki, yoshlar bu imkoniyatlardan unumli foydalanishadi. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda yoshlar siyosatini takomillashtirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bu esa nafaqat davlat organlari, balki jamiyatning barcha qatlamlari hamkorligida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish orqali mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” tog‘risidagi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2022-2023- yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 7-iyundagi 310-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406-son.

4. "Ijtimoiy siyosat" darslik (Abduxalilov A.A., Zaitov E.X.) Toshkent-2021.

5. “Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta’minotga kirish” darslik (Toshkent “Innovatsiya-Ziyo-2020)

6. “Bolalar va yoshlar ijtimoiy ta’minoti va himoyasi” o‘quv qo‘llanma (Toshkent-2020)